

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aniq va tabiiy fanlar

FIZIKA– TEXNIKA

O‘.B.O‘ljayev, K. Mehmonov, I.D.Yadgarov, U.B.Xalilov Vodorod adsorbsiyasida grafendagi nuqsonlarning roli	6
A.Sh.Raximov Avtomobil dvigatellarining asosiy turlari va ish sikli.....	13
Sh.A.Muminova, I.D. Yadgarov, O‘.B. O‘ljayev Azot atomlarining turli xil haroratdagi uglerodli nanotrubkalarga ta'siri	22

KIMYO

I.R.Asqarov, M.A.Axmadaliev, N.M.Yakubova Furfuralning xalq iqtisodiyotidagi ahamiyati	28
S.A.Mamatqulova, I.R.Asqarov Oddiy arpabodiyon (<i>Pimpinella anisum L.</i>) tarkibidagi biologik faol moddalarning antioksidantlik faolligini aniqlash.....	33
X.V.Qoraboyev, N.Sh.Azimov <i>Indigofera tinctoria Linn</i> o‘simligi tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini o‘rganish	39
J.B.Mavlonov, Sh.N.Turemuratov, B.Ch.Nurimbetov, E.A.Eseyova Jamansay koni dolomitini o‘rganish.....	45
A.A.Xamzaxo‘jayev, M.I.Payg‘amova, G‘.M.Ochilov, R.A.Payg‘amov Ikkilamchi xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish	50
X.V.Isroilova, B.Y.Abdug‘aniyev, A.B.Perdebayev Tashqi iqtisodiy faoliyatda polimerlarning nazariy va huquqiy jihatlari	54

BIOLOGIYA

I.I.Zokirov Sabzavot–poliz agrobiotsenozlarida tasodifiy uchrovchi adventivlar (Markaziy Farg‘ona hududi misolida)	60
M.R.Shermatov <i>Mythimna unipuncta</i> ning rivojlanishi hamda morfologik xususiyatlariga ozuqa o‘simligining ta'siri	64
V.Maxmudov, J.O.Mamarasulov Farg‘ona vodiysi florasida burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub endem turlarni muhofazasi	74
G.M.Zokirova Farg‘ona vodiysida ilk marta qayd etilgan <i>Pineus strobi</i> hartig, 1839 (Hemiptera, Adelgidae) turining bioekologiyasi	77
A.E.To‘lqinov Plankton organizmlarga xos xususiyatlar tahlili	80
Y.Qayumova, Ch.Abdug‘axorova Iskandariya (<i>iskandaria prokofiev</i> , 2009) urug‘i turlarining Farg‘ona vodiysi chuchuk suv havzalari bo‘ylab tarqalishi	83

GEOGRAFIYA

T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, E.D.Hamdami O‘zbekiston tog‘li hududlarida rekreatsiyani rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	87
O.I.Abdug‘aniyev, E.G‘.Mahkamov, H.R.Abdullayeva Turistik-rekreatsiya tizimlarini shakllantirishda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini baholash	94

O‘ZBEKISTON TOG‘LI HUDUDLARIDA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISH VA HUDUDIY TASHKIL ETISHNING BA‘ZI MASALALARI**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ И ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ РЕКРЕАЦИИ В ПРЕДЕЛАХ ГОРНЫХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА****SOME ISSUES OF DEVELOPMENT AND TERRITORIAL ORGANIZATION OF RECREATION WITHIN THE MOUNTAINOUS TERRITORIES OF UZBEKISTAN****¹Jumayev Turob Jumayevich**¹Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti faxriy professori, geografiya fanlari doktori, professor**²Qurbonov Shuxrat Bekmetovich**²O‘zbekiston Milliy Uuniversiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida dotsenti**³Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o‘g‘li**³O‘zbekiston Milliy universiteti, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Maqolada tog‘li hududlarda turizm va rekreatsiya xo‘jaligini rivojlantirishning ba‘zi geografik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mavjud nazariy va amaliy ma‘lumotlar asosida tog‘li hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha yo‘nalishlar, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены некоторые географические аспекты развития туризма и отдыха в пределах горных территорий. Также на основе имеющейся теоретической и практической информации даются направления, выводы и рекомендации социально-экономическому развитию горных районов.

Abstract

The article examines some geographical aspects of the development of tourism and recreation within mountainous areas. Also, based on available theoretical and practical information, directions, conclusions and recommendations for the socio-economic development of mountainous areas are given.

Kalit so‘zlar: turizm, rekreatsiya, tog‘ turizmi, tog‘li hududlar, tog‘ tabiati, tog‘ ma‘muriy tumanlari, tog‘ xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, tog‘li hududlar iqtisodiyoti.

Ключевые слова: туризм, рекреация, горный туризм, горные территории, горная природа, горные административные районы, устойчивое развитие, экономика горных регионов.

Key words: tourism, recreation, mountain tourism, mountain territories, mountain nature, mountain administrative regions, sustainable development, economy of mountain regions.

KIRISH

Insoniyatning barcha tarixiy davrlarida kishilarning tog‘larga va tog‘lardan tekisliklarga ko‘chishi to‘xtovsiz davom etgan. Ularning ko‘pchiligi, ayniqsa, so‘nggi ikki-uch asrda tog‘larga hordiq chiqarish, dam olish maqsadida borgan. Shu munosabat bilan asta-sekin tog‘ turizmi va rekreatsiyasi shakllangan va tez rivojlangan. Tog‘ turizmi o‘zida inson faoliyatining keng sohaslarini birlashtiradi. Mazkur g‘oyat xilma-xil tarmoq tog‘ aholisi va iqtisodiyoti, atrof muhitiga uzoq muddatli ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy tarmoqlardan biriga aylandi. Turizmga tog‘ rayonlarida o‘zgarishlar katalizatori sifatida doimo katta e‘tibor qaratilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo tog‘ turizmida kishilarning tog‘larga mavsumiy va doimiy yashashga ko‘chib borishi, ya‘ni komfortga yo‘naltirilgan migratsiya, qulay dam olishga yo‘naltirilgan turizmning yangi yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishi sodir bo‘lmoqda.

Bu borada respublikamizda ham turizm va rekreatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, aholi salomatligini yanada mustahkamlash, sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining dam olishi, xordiq chiqarishi va salomatligini qayta tiklashiga oid bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 1-ilova

“III. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shir sur‘atlarini ta‘minlash” bo‘limi 35-maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur masadda yangi turizm yo‘nalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish (bunda: mutlaqo yangi yo‘nalishlar, jumladan, turizm qishlog‘i, turizm va gastronomik ko‘chalar, ziyorat turizmi marshrutlari, plyaj, suvda va cho‘l hududlarida dam olish turizmi tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish; mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratish), “To‘siqsiz turizm”ni rivojlantirish (jumladan, mahalliy aholi uchun turizm qishlog‘i, eko, agro turizm va gastronomik ko‘chalar, ziyorat turizmi marshrutlarini yo‘lga qo‘yish) lozimligi belgilangan. Yuqoridagilar bilan birga, mazkur farmonda ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar sifatida tog‘li Zomin, Forish, Baxmal tumanlari hamda “Aydar-Arnasoy ko‘llari” tizimida qo‘shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 mln. AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 mingta ish o‘rinlarini yaratish ham belgilangan [1;2]. Shu bilan birga, O‘zbekistonda hududlardagi turizm, rekreatsiya obyektlarini inventarizatsiya qilish, mazkur obyektlarga turistlar oqimini jalb qilish choralari ishlab chiqish, mahalliy, milliy va xalqaro ahamiyatdagi turistik marshrutlarni loyihalash, ularning kompleks dasturlari va xaritalarini yaratish, joylarda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish yo‘llarini asoslashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tog‘ turizmi va rekreatsiyasi geografiyasining nazariy-metodik jihatlarini xorijiy olimlar B.Abbeg, H.Elsasser, M.Bichvarov, S.Bearman, A.Kunberger, S.Balbi, S.Gipponi, L.Bonzanigo, P.Beddi, S.Hudson, K.Bredford, J.Brohman, A.Brayman, R.Costas, L.Moreno, P.Heberlein, Y.Gavel, P.Godde, M.Pris, Z.Zimmerman, J.Herbin, J.Hubert, A.Dar, I.Rashid, A.Roshmo, A.Marazi, T.Lasanta, A.Milman, A.Martin, S.Jamal, F.Ritter, I.Storch, P.Fredman, M.Ikena, J.Linde va S.Grab va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan [3].

Jumladan, B.Abbeg va H.Elsasserlar Alp tog‘larining Shveysariya mamlakatidan o‘tgan qismining turistik salohiyatini va iqlimining tog‘ turizmi va rekreatsiyaga ta‘sirini o‘rganishgan. M.Bichvarov esa, Bolgariya tog‘larida turizmni rivojlantirishning muammolarini tadqiq qilgan. Shuningdek, S.Balbi, S.Gipponi, L.Bonzanigolar Alp tog‘larida qishki turizmni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. A.Dar, I.Rashid, A.Roshmo, A.Marazilar Himolay tog‘larining Kashmir viloyatidan o‘tgan qismining turistik imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. P.Fredman, A.Heberleyinlar Skandinaviya tog‘larining Shvetsiya mamlakati hududidan o‘tgan tarmog‘ida tog‘ turizmining rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillarni, M.Ikenaga esa Alp tog‘larining Avstriya mamlakatidan o‘tgan qismining turistik imkoniyatlarini, J.Linde va S.Grablar Janubiy Afrika Respublikasidagi Drakon tog‘larining turistik va rekreatsiya salohiyati jihatdan o‘rgangan [7].

MDH tog‘ rayonlarida turizm va rekreatsiya rivojlanishining turli jihatlarini bo‘yicha G.Ye.Avakyan, A.A.Aydaraliyev, K.Atishev, Yu.P.Badenkov, A.B.Bajev, P.Ya.Baklanov, B.M.Beroyev, V.A.Baburin, A.K.Borunov, G.S.Gujin, V.Sh.Djaoshvili, A.Isayev, E.D.Kobaxidze, V.M.Kotlyakov, X.M.Muxabbatov, M.N.Nurnazarov, S.Ye.Oganyan, K.Otarboyev, P.N.Polyan, B.B.Rodomon, Yu.P.Seliverstov, K.V.Chistyakov va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

O‘zbekistonda esa tog‘ muammolarining turli jihatlarini tabiiy-geograflar A.A.Abulqosimov, L.A.Alibekov, L.N.Babushkin, X.Vahobov, Sh.S.Zokirov, M.Qoriyev, N.A.Kogay, L.N.Korjnevskiy, M.Mamatqulov, A.M.Nig‘matov, S.Nishonov, O.Yu.Poslavskaya, A.A.Rafiqov, A.Saidov, S.Xisomov, V.L.Shuls va boshqalar, iqtisodchi geograf va iqtisodchilar O.Abdullayev, Q.Abirqulov, Z.M.Akramov, O.B.Otamirzayev, T.M.Axmedov, E.A.Axmedov, A.G.Batigin, K.M.Bedrinsev, Sh.N.Zokirov, Sh.B.Imomov, M.Q.Qoraxonov, A.A.Qayumov, Q.I.Lapkin, A.N.Ro‘ziyev, S.Saidkarimov, T.J.Jumayev, A.Soliyev, Yu.I.Ahmadaliyev, G‘.R.Pardayev, S.I.Abdullayev, A.Nizomov, Sh.Shomurodova, M.Mahmudovlarning ishlarida tadqiq etilgan [5].

1998-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2002-yilni Xalqaro tog‘ yili (XTY) deb e‘lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. XTYning maqsadi xalqaro hamjamiyatni tog‘ xalqlari ehtiyojlariga e‘tibor qaratish, tog‘larda atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanish orqali aholi hayotini yaxshilash hisoblanadi. 2002-yil XTYning rasmiy ochilish marosimi 2001-yil 11-dekabrda Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasida bo‘lib o‘tdi. 2000-yilda Fransiyada (Parij, Shamberi) 140 ta tog‘ mamlakat vakillari ishtirokida Butunjahon tog‘ forumi bo‘lib, unda tog‘

GEOGRAFIYA

mintaqalari barqaror rivojlanishi bo'yicha turli tashabbus va tadqiqotlar qo'llab-quvvatlandi. Forum yakuni bo'yicha "Tog' xalqlari xartiyasi" qabul qilindi, unda mahalliy, milliy, xalqaro darajalarda hokimiyatning umumiy harakat prinsiplari belgilandi va tasdiqlandi. 2001-yilda Interlakenda, Shveysariya, 2002-XTYga bag'ishlangan Butunjahon tog' simpoziumi o'tkazildi. Simpozium ishida dunyoning barcha tog' rayonlari, shu jumladan, O'zbekiston vakillari ham ishtirok qilishdi. Simpoziumda tog' rayonlarining barqaror rivojlanishi bo'yicha aniq dasturiy harakatlari ishlab chiqildi, ulardan mahalliy, milliy, xalqaro tashkilotlar va siyosatchilar foydalanishi tavsiya etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholi mehnat bilan muntazam shug'ullanish natijasida ham ruhan, ham jismonan charchaydi. Oqibatda uning mehnat unumdorligi, u yaratayotgan mahsulot sifati pasayadi. Bunday holat nafaqat jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarda, balki aqliy mehnat bilan band bo'lganlarda ham kuzatiladi. Shu bois, aholi dam oladigan, sog'ligini tiklash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb yetadi. Bu esa, o'z navbatida rekreatsiya tizimini turli tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarda to'g'ri oqilona tashkil etilishni taqozo etadi.

Turizm va rekreatsiya xo'jaligini hududiy tashkil etishda tog' landshaftlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tog'larning jozibadorligi va maftunkorligi, go'zal tog' tabiatining inson salomatligiga ijobiy ta'siri bilan izohlanadi. Tog' hududlarining borib-kelishga qulayligi turizm va komfortga yo'naltirilgan migratsiya rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ular harakatlarga katta erkinlik beradi, tog'larga va aksincha tekisliklarga tovarlar oqimini ko'paytiradi. Turizm va komfortga yo'naltirilgan migratsiya tog'larga ijobiy o'zgarishlarni olib keladigan kuch va omilga aylanadi. Biroq, mazkur jarayonlarni boshqarish strategiyasi nafaqat iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan, balki, transport va boshqa infratuzilmalar, ta'lim, hududiy rejalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va tog' mintaqalari rivojlanishining turli jihatlarini bilan integratsiyalashishi talab etiladi.

O'zbekiston aholisining rekreatsiya ehtiyojlarini qondirish tizimida tog' zonasi mamlakatning asosiy rekreatsiya mintaqasi vazifasini bajaradi. Cho'l qurshovi sharoitida aholi zich joylashganligi sug'oriladigan tekislik zonasi sharoitida aholi yozda haddan tashqari biologik faol ultrabinafsha radiatsiyasi nurlanishiga duchor bo'ladi, shuningdek, juda issiq ob-havo ham noqulay ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tog' zonasining kurort va sayyohlik afzalliklari, eng avvalo, yuqori darajada qulay iqlim sharoitlari (iliq qish, salqin yoz, havoning past namligi, gelioterapiya resurslari va boshqalar), tog' hududining xilma-xilligi bilan o'ziga xos go'zalligining sof tabiati (qo'riqxonalar, tog' cho'qqilari va boshqalar), shifobaxsh mineral buloqlar, tabiat va tarixiy yodgorliklar, etnografik xususiyatlar va boshqalar bilan belgilanadi. Tog'larda havo sukunati va tozaligi, balandlik zonalligi va qisqa masofada ekotizimlarning tez almashinishi, ekspozitsiya va iqlim farqi (masalan, yozda o'rta tog'larda havo harorati tekisliklarga nisbatan 6-12° pastroq bo'ladi), tog' aholisi madaniyatining katta xilma-xilligi odamlarning dam olishlari va davolanishlari uchun juda qulay muhitdir. Tog'lar nafaqat bemorlarga, balki dam olishga muhtoj har bir kishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda tog'larning rekreatsiya funksiyasi ishchi kuchini takror barpo etishning elementi hisoblanadi, mehnatga qobiliyatlilik harakati nuqtai nazaridan makroiqtisodiy aylanmada ishtirok etadi va shu sababdan respublika milliy iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining muhim omiliga aylanadi. Shahar aholisi sonining o'sishi, bo'sh vaqt, aholi harakatchanligining ko'payishi, tog'larning borib-kelishga qulayligining oshishi, turizm va dam olishni ko'plab tog' rayonlari iqtisodiy rivojlanishining muhim kuchiga aylantiradi [6].

Tog' zonasida dam olishni tashkil etishning zarur shartlari va salohiyati, bir tomondan, boy va xilma-xil tabiiy rekreatsiya resurslarining mavjudligi, boshqa tomondan esa mamlakatning ko'p millionli aholisi uchun dam olishni ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, shaharlarda mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'prog'i yashaydi. Respublika shahar aholisining 2/5 qismidan ko'prog'i Toshkent poytaxt mintaqasi ulushiga to'g'ri keladi. Tog' zonasida mavjud ulkan salohiyat, ayniqsa, qulay iqlim, shifobaxsh balchiqlar, mineral suvlar, tog' daryolari, ko'llari, g'orlari, manzarali archazor o'rmonlari va boshqa ko'plab resurslar dam olishning xilma-xil turlarini rivojlantirishga tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Landshaftning xilma-xilligi turizmning barcha mavsumiy turlarini past tog'lardan baland tog'larga, yozgi dam olish markazlaridan qishki tog' chang'i, ov qilish, baliq ovlash, otda yurish va boshqalarga qadar tashkil etib, rivojlantirishga yordam beradi. Bularning barchasi aholi bandligining

barqaror xilma-xilligini ta'minlaydi. Shunday qilib, respublikaning tog' zonasi uni rekreatsiyada o'zlashtirilganda mamlakat aholisining dam olish va davolanishga bo'lgan talabining deyarli barcha turlarini qondirishi mumkin. Bundan tashqari, rekreatsiya tog' rayonlarida o'zgarishlarning katalizatori bo'lib, tog'lar tabiatining alohida o'ziga xos xususiyatidan real foyda olishga imkon beradigan ekologik toza, iqtisodiy foydali xo'jalik tarmog'idir.

Biroq dam olishning hozirgi rivojlanish darajasi talab va ehtiyojlardan ancha orqada qolmoqda va imkoniyatlardan bir necha baravar past. Ayni paytda tog'larda bir vaqtning o'zida qariyb 11 ming kishi dam oladi, salohiyat quvvati esa turli hisob-kitoblarga ko'ra 150-200 ming kishini tashkil qiladi. Asosiy qiyinchilik rekreatsiya infratuzilmasining yetishmasligi. Kichik va xususiy biznes yordamida ularning rivojlanishini tezlashtirish mumkin. Chet davlatlar misollari tog' mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni qanchalik katta bo'lishi mumkinligini ishonchli tarzda namoyish etadi. Mahalliy aholi sayyohlar oqimiga moslashadi, turistik va kurort muassasalarida va transportda ommaviy ish bilan bandlik, aloqa-kommunikatsiya tizimlari, zamonaviy maishiy va servis xizmati ko'rsatish, turli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, agrar-rekreatsiya komplekslari shakllanadi. Turizm tog'liklarning an'anaviy madaniyati – musiqiy, folklor, xalq raqslari, san'at, xalq hunarmandchiligini asrash va qayta tiklashga katta hissa qo'shadi. Natijada tog' mintaqalari bozor munosabatlari va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy muhiti hayotida faolroq ishtirok etadi.

Tog' zonasining zamonaviy rekreatsiya xo'jaligi o'ta notekis rivojlanishi va joylashishi bilan ajralib turadi. Bular bir qator omillar, eng avvalo, tog' rekreatsiya resurslarining qiymati, ularning noyobligi, infratuzilmaning rivojlanishi va, albatta, tog' hududlarining geografik o'rni bilan belgilanadi. Respublikamizda mavjud rekreatsiya tizimida asosiy o'rinni Toshkent viloyatining tog'li hududlari egallaydi, bu yerda rekreatsiyaning ko'p turlari (shu jumladan tog'-chang'i sporti) va turizm infratuzilmasi rivojlangan. Ikkinchi guruh Farg'ona vodiysi tog'lari rekreatsiya rayonlaridan iborat bo'lib, ular birinchi guruhdan sezilarli darajada ortda qolgan. Boshqa viloyatlarning tog'lari rekreatsiyada o'zlashtirishning nisbatan pastligi bilan tavsiflanadi.

Toshkent viloyatida tog' rekreatsiya komplekslari va markazlarining faol shakllanishiga ushbu mintaqaning qulay transport-geografik o'rni (Toshkent va mintaqaning boshqa sanoat markazlariga borish-kelish qulayligi va ularning yaqinligi) imkon bergan. Umumiy sig'imi 3,5 mingdan ziyod bo'lgan 14 ta sanatoriya, dam olish uylari, pansionatlar va turizm markazlari, ko'plab dam olish zonolari, bolalar lagerlari komplekslari, turizm va sport bazalari mavjud. Turizmning maxsus shakli hisoblangan tog'larda joylashgan ko'plab dala hovlilar (dacha)da joylashadigan va vaqtincha yashaydigan shahar aholisining ulkan oqimini ham o'z ichiga oladi.

Tog'larda funksional jihatdan 4 xildagi tog' dam olish zonolari shakllangan [5]:

1. **Pargos Oqtosh tibbiy-sog'lomlashtirish mintaqasi.** Tog' iqlimi, mineral manbalardan, Xo'jakent suv omborining qirg'og'idan foydalanish asosida tashkil topgan. Bu yerda "Tovoqsoy" (800 metr), "Xumson" (1150 metr), "Oqtosh" (1140 metr) sanatoriylari va boshqa dam olish zonolari, bolalar oromgohlari, sport bazalari mavjud.

2. **Chimyon-Chorvoq sog'lomlashtirish mintaqasi.** Chorvoq suv ombori qirg'og'i bo'ylab cho'zilgan va tabiati jozibador G'arbiy Tyanshan-Chorvoq botig'i va Chimyon tog' maskanini qamrab olgan. Ushbu hududda O'zbekistondagi eng katta dam olish zonasi barpo etilgan. Mazkur mintaqa uchun suv ombori qirg'oqlariga tutashgan, Toshkent shahri korxonalar va tumanlarining dam olish zonolari, bolalar komplekslarining keng tarqalganligi xosdir. Shuningdek, mintaqa Chimyon dam olish zonasini (1300-1700 metr) o'z ichiga oladi, ular yana tog' turizmi va tog' chang'i sport ixtisoslashuvi bilan ham ajralib turadi.

3. **Oqsoqota-Parkent-So'qoq sog'lomlashtirish mintaqasi.** Chotqol tizmasining past tog'-o'rta tog' zonasini, shu jumladan Ugom-Chotqol tabiat bog'i hududini qamrab oladi. Rekreatsiya obyektlarining yiriklari – Kumushkon (1200 m), So'qoq (1200 m), dam olish uylari, dam olish zonolari, turizm markazlari, bolalar oromgohlari to'rlaridan iborat.

4. **Ohangaron-Yangiobod sog'lomlashtirish-sayyohlik mintaqasi.** Mintaqa (1200-1800 metr) asosan Angren-Olmaliq tog'-kon sanoat kompleksining dam olish zonasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Angren vodiysi va Qurama tog'larining rekreatsiya imkoniyatlaridan uzoq va qisqa muddatli dam olishni tashkil qilish uchun foydalaniladi.

GEOGRAFIYA

Farg'ona vodiysining tog'-rekreatsiya kompleksi ixtisoslashgan davolash (sanatoriy-kurort) yo'nalishining ustunligi bilan ajralib turadi va qulay iqlim bilan bog'liqlikdagi (500-1600 metr) mineral suvlarning ko'plab manbalari asosida paydo bo'lgan. Turizm bazasi, dam olish uylari, dam olish zonalari, bolalar oromgohlari tizimlari va hokazolar mavjud. Farg'onabo'yi tog'larida umumiy sig'imi 5,5 ming o'rinli "Chortoq" sanatoriyasi (650 metr), "Chimyon" (450 metr), "Shohimardon" (1500 metr), "Kosonsoy" (1000 metr), "Nanay" (1200 metr), "Chodak" (1200 metr) sanatoriylari faoliyat yuritadi.

Rekreatsiya talablarini shakllantirish markazlaridan uzoqda joylashgan boshqa viloyatlarning tog'lari rekreatsiya o'zlashtirishlarining sustligi bilan ajralib turadi, ularda faqat ayrim turizm, dam olish va davolash o'choqlari mavjud, xolos. Odatda, bular yirik korxonalarining bolalar sog'lomlashtirish lagerlari, dam olish zonalari va uylari hisoblanadi. Masalan, "Abu Ali Ibn Sino" sanatoriysi (G'allaorol, 500 metr), "Ogalik" (Samarqand, 850 metr), "O'rikli" (Zomin tumani, 1700 metr) va boshqalar; dam olish uylari – "Samarqand" (600 metr), "Zomin" (1700 metr), "Langar" (Qamashi tumani, "Xonjiza" Sariosiyo tumani, 1800 metr) va boshqalar. O'rta va Janubiy tog' mintaqalari dam olish muassasalarining umumiy sig'imi taxminan 2 mingta o'ringa teng va ular tog' mintaqalarining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Kelgusida mamlakatning ko'plab tog' mintaqalari rekreatsiya xo'jaligini iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirishi mumkin. Shu munosabat bilan, eng avvalo, quyidagi ikkita muqobil variantga asoslanish maqsadga muvofiq: tog' zonasining O'zbekistonning asosiy rekreatsiya mintaqasi holatini saqlab qolish yoki uni boshqa mintaqalarga (sug'oriladigan tekislik zonasiga) berish. Ko'rinib turibdiki, ikkinchi variant birinchisiga nisbatan ancha kam asosga ega, chunki uni amalga oshirish hisoblash qiyin bo'lgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy sarf-xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun birinchi variant asos sifatida qabul qilinadi, ya'ni tog' zonasini o'ziga xos iqtisodiy-geografik turdagi hududga – rekreatsiya-turizmga ixtisoslashgan mintaqaga aylantirish, uning ishlashida "turizm industriyasi" yetakchi omil bo'lishi kerak. Turizm xizmati aholining ko'pchilik qismi uchun an'anaviy faoliyatga qo'shimcha sifatida muhim daromad manbalaridan biri bo'lishi lozim.

O'zbekiston tog' zonasida dam olishni yaxlit va kompleks rivojlantirish va hududiy tashkil etish konsepsiyasi ishlab chiqilishi va mazkur konsepsiya quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanishi lozim:

- 1) tog'larning tabiiy-rekreatsiya salohiyatidan keng foydalanish sayyohlar va dam oluvchilarni joylashtirishga ixtisoslashgan aholi punktlarining maxsus tizimini shakllantirish hisobiga mamlakatning rekreatsiya ehtiyojlarining katta qismini qondirish;
- 2) sog'lomlashtirishning eng muhim omili sifatida tog' muhitining yuqori sifatini saqlash va muhofaza qilish;
- 3) rekreatsiya xo'jaligini intensivlashtirish va resurslardan foydalanishni konsentratsiya, kooperatsiya va ixtisoslashuv hisobiga uzluksiz takomillashtirish;
- 4) rekreatsiya ehtiyojlari va talabni, birinchi navbatda, rekreatsiya resurslarining samarali reklamasini yo'lga qo'yish hisobiga boshqarish;
- 5) hududiy rekreatsiya tizimlarining samarali ishlashini hududiy rekreatsiya tizimlarini boshqarishni takomillashtirish hisobiga samaradorligini oshirish imkoniyatidan foydalanish.

Tavsiya etilgan konsepsiyaga muvofiq eng muhim tadbirlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: - rivojlangan rekreatsiya tog' infratuzilmasini barpo etish va tog' hududlariga yil davomida xavfsiz kirish-chiqishni ta'minlash (jihozlangan dam olish joylari va xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan ta'minlangan, ixtisoslashtirilgan rekreatsiya markazlari, komplekslari, rekreatsiya yo'llari va piyoda yo'laklar to'rlarini shakllantirish).

Rekreatsiya obyektlariga har tomonlama to'siqsiz borish va qaytishning qulayligi rekreatsiyani rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Rekreatsiya infratuzilmasini barpo etishga xususiy, mahalliy va xorijiy investorlarni ularga soliq va boshqa imtiyozlar berish orqali jalb qilish zarur (bu jihatdan maxsus jamg'armalarni ham barpo etish mumkin);

– barcha tekislik-tog' viloyatlari tog' hududlarida milliy (tabiat) bog'lari maydonini tabiat muhofazasi va rekreatsiya funksiyalarini birga olib borish prinsipi asosida tashkil etilgan hududlar sifatida sezilarli darajada kengaytirish;

– tog' hududlaridan rekreatsiyada foydalanishni qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, o'rmon xo'jaligida foydalanish va tabiat muhofazasi funksiyasi bilan birgalikda amalga oshirish, bunda rekreatsiya va ishlab chiqarishni birga qo'shib olib boradigan klasterlarni barpo etish;

– rekreatsiya tashkilotchilarining e'tiborini alohida korxonalarni tashkil etishdan rekreatsiya jihatidan obodonlashgan va jihozlangan hududlar tizimini yaratishga, infratuzilmani rivojlantirishga, dam olish tizimini tashkil etishga chiziqli-balandlik (ekskursiya, piyoda sayr qilish, sayyohlik marshrutlari) va nuqta (ekskursiya joylari va obyektlari) elementlarini qo'shishga jalb qilish;

– tog' iqtisodiyotini ko'p tarmoqli xo'jalikka aylantirishning faol omili sifatida dam olishni tashkil etishga kichik va xususiy tadbirkorlikni keng jalb qilish. Shu maqsadda tog'larda dam olishga kapital inshootlar va professional servis xizmatiga emas, balki minimal texnik vositalar bilan jihozlangan sayyohlarning o'z-o'ziga xizmatiga, sportga, piyoda yurishga va alpinizmga, tog' aholisining an'anaviy hayotiga (ekoturizm) eng yuqori darajada (maksimum) yaqinlashtirishga ko'proq e'tibor berilishi kerak;

– O'zbekiston tog'larining turistik atlasini yaratish.

Ushbu muammolarni hal qilish, bir tomondan, tog'larning rekreatsiya funksiyalarini kuchaytirishga, ikkinchi tomondan, mamlakatimizning noyob tabiati va madaniyatini saqlab qolishga imkon beradi. Shu munosabat bilan rekreatsiya resurslarini o'zlashtirishni investitsiyalarning turli manbalaridan foydalangan holda tabaqalashtirib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, Toshkent viloyatining rekreatsiya tizimini yanada rivojlantirish iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan poytaxt sanoat mintaqasi korxonalar va tashkilotlari mablag'lariga asoslanishi mumkin. Bundan tashqari mavjud moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda, ushbu mintaqaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Respublikaning boshqa viloyatlarining rekreatsiya resurslarini o'zlashtirish, asosan, korxonalar va tashkilotlar hisobidan to'liq amalga oshmaydi, chunki bu yerda sanoatning rivojlanish darajasi poytaxt mintaqasiga nisbatan ancha past, shuning uchun investitsiya imkoniyatlari ham kam.

XULOSA

Umuman olganda, tog' zonasining istiqbolli rekreatsiya tizimi O'zbekiston aholisining asosiy qismini yil davomida barcha turdagi dam olishga ehtiyojlarini qondirishi lozim. Rekreatsiya talablarini shakllantirish markazlariga (sug'oriladigan tekislik zonasi) nisbatan tog' rayonlarining geografik o'rniga bog'liq holda kunlik (yarim soatlik transportga kirish-chiqish imkoniyati), qisqa muddatli (haftalik, 1,5-2 soatlik transportda kirish-chiqish) va uzoq muddatli dam olish toifalarini (yillik – ta'til va o'quv ta'tili davrida, asosan, tog'lardan uzoqda joylashgan rayonlar uchun) tashkil etish zarur.

Keyingi 5-10 yil ichida tog'larda dam olishga bo'lgan umumiy ehtiyoj taxminan 6,6-8,2 million joyni (mamlakat aholisining 20-25 %) tashkil qilishi mumkin. Ushbu hajmdagi talabni qondirish uchun taxminan 3-8 million gektar tog' hududlarining rekreatsiya salohiyatidan foydalanish talab qilinadi (1-2 kishi / gektar yoki bu tog'li maydonning 3,1-8,7 %).

Mamlakatning barcha tekislik-tog' viloyatlari ommaviy tabiiy va ekologik turizm markazlariga aylanishi mumkin, ularning o'ziga xos tabiiy jozibasi tog'lar go'zalligi va ularning daryolari, qorlik maydonlari, g'orlari, ko'llari, landshaftlari, mineral buloqlari, etnografik va iqtisodiy xususiyatlari va shu kabilardan iboratdir. Shu sababdan O'zbekiston tog'lari turizm resurslari salohiyati bo'yicha dunyo xalqaro turizmida yetakchi o'rinni egallagan ko'plab mamlakatlardan qolishmaydi. Bozor munosabatlari sharoitida tog' turizmi respublikaning yirik iqtisodiy faoliyat sohasiga aylanishi mumkin. Ularni butun O'zbekiston tog' zonasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'nalishida hal qilish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.

3. Горы мира – глобальный приоритет. Редакторы Б. Мессерли, Дж. Айвз. Прев. с англ. Ред. русского изд. Ю.П.Баденков, В.М. Котляков. М.: издательский дом «Ноосфера», 1999, 450 с.

4. Джумаев Т. Перспективы устойчивого развития горных районов Узбекистана. Изв. РАН. Сер геогр. 2002, №2, с 104-106.

GEOGRAFIYA

5. Jumayev T.J. Bizning ulug'vor tog'larimiz. O'zbekiston tog' zonasining barqaror rivojlanishi. Nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent, 2021, 700 b.
6. Федорко В.Н., Курбанов Ш.Б. Некоторые аспекты социальных условий жизни населения в горных районах Узбекистана // Вестник Ошского государственного университета. Ош. 2022. С. 196-205.
7. Rio-Rama. M. C, Maldonado-Erazo. A, Duran-Sanchez and J. Alvarez-Garcia (2019) Mountain tourism. A review. European Journal of Tourism Research 22, pp 130-150.
8. www.stat.uz